

**O‘ZBEKISTONDA FARMATSEVTIKA SOHASIDA GOOD
PHARMACY PRACTICE (GPP) NING TUTGAN O‘RNI VA AHAMIYATI:
MDH DAVLATLARI BILAN SOLISHTIRMA-STATISTIK TAHLIL**

Yusupov Ilyosbek Poziljon o‘g‘li

ADTI, Farmatsiya fakulteti, assistant

E-mail: yusupovilyosbek@gmail.com

Abdulazizov Akbarjon A‘zamjon o‘g‘li

ADTI, Farmatsiya fakulteti, assistant

E-mail: akabdulazizov@gmail.com

ANNOTATSIYA. *Mazkur ilmiy maqolada Good Pharmacy Practice (GPP) tamoyillarining O‘zbekiston farmatsevtika tizimidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilindi. GPPning farmatsevtik xizmat sifati va bemor xavfsizligiga ta’siri baholandi. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston, Qozog‘iston va Ukraina farmatsevtika tizimlari bilan solishtirma-statistik tahlil asosida yoritildi [1,2].*

Kalit so‘zlar: *Good Pharmacy Practice, GPP, farmatsevtik yordam, dorixona amaliyoti, O‘zbekiston, MDH davlatlari, farmatsevtika bozori.*

ANNOTATION. *This scientific article analyzes the role and significance of the principles of Good Pharmacy Practice (GPP) in the pharmaceutical system of Uzbekistan. The impact of GPP on the quality of pharmaceutical services and patient safety is assessed. The research findings are presented based on a comparative statistical analysis of the pharmaceutical systems of Uzbekistan, Kazakhstan, and Ukraine [1,2].*

Keywords: *Good Pharmacy Practice, GPP, pharmaceutical care, pharmacy practice, Uzbekistan, CIS countries, pharmaceutical market.*

1. KIRISH

So‘nggi yillarda dorixona faoliyati sog‘liqni saqlash tizimining muhim bo‘g‘iniga aylangan bo‘lib, farmatsevtlar nafaqat dori realizatsiyasi, balki bemorlarga farmatsevtik maslahat berish va dori xavfsizligini ta‘minlashda ham faol ishtirok etmoqda [1]. Shu sababli farmatsevtik xizmatlarni xalqaro standartlar asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti

(WHO) va Xalqaro farmatsevtika federatsiyasi (FIP) tomonidan ishlab chiqilgan Good Pharmacy Practice (GPP) konsepsiyasi farmatsevtik xizmatlar sifatini baholashning universal mezonini sifatida e'tirof etilgan [2].

2. GOOD PHARMACY PRACTICE (GPP) KONSEPSIYASI

GPP — bu dorixonalarda farmatsevtik xizmatlarni xavfsiz, samarali va bemor ehtiyojlariga yo'naltirilgan holda ko'rsatishni ta'minlovchi xalqaro amaliyotlar majmuasidir [1,3]. GPP quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- dori vositalarini to'g'ri saqlash va realizatsiya qilish;
- farmatsevtik maslahat va monitoring;
- dori-dori o'zaro ta'sirining oldini olish;
- farmatsevt xodimlarning doimiy malaka oshirishi [2,10].

3. O'ZBEKISTONDA GPP NING HUQUQIY ASOSLARI

O'zbekistonda GPP tamoyillari **O'zMSt 140:2024 “Good Pharmacy Practice”** davlat standarti orqali huquqiy jihatdan mustahkamlandi [3]. Ushbu standart dorixona faoliyatini tartibga solish, farmatsevtlar mas'uliyatini oshirish va aholiga ko'rsatilayotgan farmatsevtik xizmat sifatini xalqaro talablarga moslashtirishga xizmat qiladi [8].

GPP talablarini joriy etishda GxP inspeksiya tizimi va uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etadi [3].

4. GPP NING FARMATSEVTIK XIZMAT SIFATIGA TA'SIRI

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, GPP joriy etilgan dorixonalarda:

- farmatsevtik xatoliklar kamayadi;
- bemorlarning dorixona xizmatiga bo'lgan ishonchi ortadi;
- dori vositalaridan oqilona foydalanish darajasi oshadi [7].

Farmatsevtning roli dori sotuvchisidan bemor salomatligini muhofaza qiluvchi mutaxassis darajasiga ko'tariladi [6].

5. MDH DAVLATLARI BILAN SOLISHTIRMA-STATISTIK TAHLIL

5.1. Dorixonalar tarmog'i bo'yicha real ko'rsatkichlar

O'zbekistonda 2025-yil holatiga ko'ra **15253** ta dorixona faoliyat yuritmoqda, bu aholi zichligiga nisbatan yuqori ko'rsatkich hisoblanadi [8]. **Qozog'istonda** dorixonalar soni **8497** tani tashkil etadi va GPP talablariga moslashtirish jarayoni davom etmoqda [4]. **Ukrainada** esa dorixonalar soni **16256** taga yetgan bo'lib, farmatsevtik xizmat sifati bo'yicha muammolar saqlanib qolmoqda [5]. Bundan

shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda dorixonalar tarmog'ining keskin kengayishi farmatsevtik xizmat sifatini standartlashtirishni, jumladan GPP ni majburiy joriy etishni talab qilmoqda.

5.2. Farmatsevtika bozori hajmi va o'sish ko'rsatkichlari

O'zbekiston farmatsevtika bozorining chakana hajmi 2024-yilda 20,3 trln so'mni tashkil etib, yillik o'sish sur'ati taxminan 13 % ga teng bo'lgan [8]. Qozog'iston farmatsevtika bozori nisbatan barqaror bo'lib, yillik o'sish 8–10 % atrofida qayd etilgan [9]. O'zbekiston farmatsevtika bozorining jadal o'sishi GPP kabi sifat standartlarini joriy etish uchun iqtisodiy asos mavjudligini ko'rsatadi

5.3. Farmatsevtik xizmat sifati (Ukraina misolida)

Ukrainada o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra, dorixonalarning 71 % ida farmatsevtik xizmat sifati yetarli emas, farmatsevtlarning yarmidan kam qismi postdiplom ta'limdan o'tgan [5]. Ushbu holat GPP tamoyillarini tizimli joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

MDH davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, GPP talablarining qat'iy joriy etilishi farmatsevtik xizmat sifatini sezilarli darajada oshiradi, biroq bu jarayon kadrlar tayyorlash va moliyaviy resurslar bilan chambarchas bog'liq [4,9]. GPP O'zbekiston farmatsevtika tizimini modernizatsiya qilishda muhim strategik mexanizm hisoblanadi. Statistik va solishtirma tahlillar GPP farmatsevtik yordam sifati va bemor xavfsizligini oshirishda samarali ekanini tasdiqlaydi [1–3,7].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. WHO, FIP. Joint FIP/WHO Guidelines on Good Pharmacy Practice. 2011.
2. FIP. Good Pharmacy Practice: Advancing Pharmacy Practice Worldwide. 2019.
3. O'zMSt 140:2024. Good Pharmacy Practice. Toshkent, 2024.
4. Seitzhanov Z.B., Akhmetova G.K. Eur J Med Nat Sci. 2022.
5. Gala L.O., Hromovyk B.P. Zaporozhye Medical Journal. 2018.
6. Bushra R., Aslam N. J Pharm Sci. 2019.
7. Kheir N. et al. Int J Clin Pharm. 2020.
8. O'zbekiston SSV. Farmatsevtika statistik ma'lumotlari, 2023–2024.
9. OECD. Pharmaceutical Care and Community Pharmacy Services. 2018.
10. Wiedenmayer K. et al. Developing Pharmacy Practice. WHO, 2006.